IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI SOG‘LOM TENGDOSHLARI BILAN TENGLIGINI TUSHUNTIRISH YO‘LLARI

Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi
FarDU doktoranti

Annotatsiya
Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan bolalarni sog‘lom tengdoshlar bilan tengligini tushuntirishning samarali yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Har bir bola, u qaysi holatda bo‘lmasin, o‘zining qadr-qimmati va huquqlariga ega. Imkoniyati cheklangan bolalar ko‘pincha jamiyatda kamsitilish yoki ajratilish holatlariga duch keladilar. Shuning uchun, ularni sog‘lom tengdoshlar bilan tenglashtirish muhimdir.

Kalit so'zlar: *imkoniyati cheklangan bolalar ,sog‘lom tengdoshlar, inkluziv ta’lim ,tenglik,do‘stlik,hamkorlik,o‘zaro tushunish,sotsializatsiya,kamsitish, qadr-qimmat.*

KIRISH

Pedagoglar o‘z sinflari guruhlarida nogiron insonlari teng huqukqarini nogiron katta odamning yoki bolani taklif etib va u bolalar bilan nogironlikning ijtimoiy holatlari haqida suhbatlashish natijasida tushuntirib berishlari mumkin. Sinfni nogironlik imkoniyatlarning chegaralanganligi tushunchalarini tushuntirib hamda kimlar nogiron hisoblanishini aytib to‘g‘ri tushuncha bera olish lozim. Kasal bo‘lgan yoki qisqa muddatga biror joyini jaroxatlagan inson bilan nogiron inson orasidagi farqni tushuntirib bering. Ko‘pgina bolalar kasallik yoki jaroxatlanishi tajribasiga egalar. Ular bilan shu haqida va ularning tanalarida yuz bergan uzgarishlar haqida suhbatlashing. Ulardan bunday vaqtda o‘zlarini qanday his qilganliklarini so‘rang. Ularga nogironlik bu batammom tuzalib ketmaslik yoki sog‘ayish uchun yillar kerak bo‘ladigan holatda tana bilan yuz beradigan hodisa ekanligini tushuntiring. Nogironlikning ko‘rish, eshitish, ruxiy va boshqa

jarayonlaring zaifligi, kamligi kabi oddiy tushuncha ekanligini o‘quvchilar ongiga singdiring. Nogiron insondan uz xayoti haqida gapirib berishni iltimos qiling, bu bolalar uchun katta ta‘assurot qoldiradi. Uz xayotlarida kechirgan qiyinchiliklar, muammolar, boshqalarning munosabatlari, nima sababdan kamsitishlarga uchraganligi va xokazolar. Bu o‘quvchilardan o‘z hatti-xarakatlarni nazorat qilishga yordam beradi. Sinflar guruh, kishilar ustidan uning ko‘rinish, gaplashishi, qanday rivojlanganliklari (o‘qitishda qiynaluvchi bolalar) yoki o‘zini qanday tutishiga qarab barcha masalarni muxokama qilishlari lozim. Xattoki juda kichik bolalar xam bunday hikoyalarga qiziqadilar, chunki ularda xaqiqat- xissi jo‘sh urgan bo‘ladi. Bolalar o‘z tajribalarini yoki o‘zlarini taniydigan masalan, qarindoshlari mumkin. Ularni jigga tegishlarida uzlarini qanday xis qilganliklarni aytib berganlarida o‘zlarini qanday xis qilganliklarini aytib berganlarida ularning ximoyalarini quvvatlab turish kerak. Barcha nogironlar sinfda uzlarini erkin sezishlari va bemalol gaplashishlari kerak, xattoki yashirin turdagi nogironlar xam (masalan, tutqanogi bor, qandli diabetlar, surunkali astmalar). Pedagog so‘zga chiqqan nogiron bolalarning yoki sinfdagi istalgan nogiron bolaning erishgan

yutuqlarni yoki qobiliyatlarini qayd etib o‘tishi mumkin. Shuningdek quyidagilarga xam e‘tibor qarating.

1. Farqlar mavzusini ko‘rib chiqish uchun rasm chizish, o‘yin, spektakl, musiqa, ashula, hikoyalardan foydalaning.

2. Laqab to‘qimang. Butun sinflar guruh bilan birga doskada yoki guruhchalar bilan flipchatlarda ishlayotib ular invalidlik haqida eshitish barcha so‘zlarini aytishni so‘rang. Ushbu so‘zlarni bir rangda oq qog‘ozga yoki doskaga yozing. Endi sifnda yoki guruhdan salbiy deb xisoblangan so‘zlarni ajratishni s‘rang. Bolalar bilan o‘zlarini mana shu so‘zlar bilan atashganda qanday xis qilishlarini muxokama qiling. O‘zingizda manna shu so‘zlarning ayrimlarini kelib chiqishi yozilgan kartochkalar bo‘lsin.

3. Maktabdagi atrof muxit. Maktab atrofida imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning erkin va muammosiz xarakatlanishiga ham pedagog eng birinchi galda e‘tibor qaratishi talab etiladi. Shuning uchun ham siz aravachada o‘tiradigan o‘quvchi bilan maktab atrofini aylanib chiqing. Natijalarni muxokama qiling va yozma tarzda maktab rahbariyatiga taqdim eting. 4.Tashqi olam. Sinf, guruh bilan sizning maxalliy yirik do‘konigiz atrofini barcha xudud va aloxida sigmentlarini tasvirlang, xarita bilan sayr qiling. Oldin ayrim turlari yoki xizmat qilish binolarini begilash uchun belgilarini kelishib olinglar. Ozik ovqat do‘konlarini, sartorash xonalar, banklar, restoran, dorixonalar va boshqa bolalarga shuningdek ko‘rishi va eshitishida nuqsoniga ega, aravachada xarakatlanuvchi va o‘qishda qiynaladigan insonlar uchun to‘siq bo‘la oladigan narsalarni belgilab borishni taklif eting. Ulardan nogironlarga hurmat ko‘rsatish soxalarida foydalanish uchun qo‘llanishi mumkin bo‘lgan istalgan moslama haqida sinfga qaytgach, xarita chizmasiga natijalarni belgilang va shu munozara uyushtiring. Munozara natijsida guruhlar sinfda quyidagi topshiriqlarni ayrimlarni asta sekinlik bilan bajarishlari mumkin. A). Tashkilot raxbariga uning nogironlarga noqulaylik jixatlari aniqlanganni tushuntirish xati yozib, tushuntirish ishlarni olib borish; B). Qulaylik barchaga kerakligini va nima uchunligini aks etirgan plakat yarating yoki chizing; V). Xizmat ko‘rsatish soxalarida qulaylik mavjud bo‘lmaganida nogironlarda yuz beruvchi muammolarni aks ettiruvchi rolni saxnalashtiring; G). Umumiy majlis uyushtiring va u yerda sinf o‘quvchilarni butun maktabda amalga oshirilgan ishlari haqida ma‘lumot bersinlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O.Musurmonova, M.Umaralieva. “ Oila – nogiron bo‘lgan bolalarning ijtimoiylashuvida mustahkam ko‘prik, DGU20230653- 1 bet.

2. M.Umaralieva “Umumiy o‘rta ta’lim o‘qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirish tamoyillari”, “Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar” ilmiy-metodik jurnali.– Buxoro.2023.№7.303-310b. 7 bet.

3. M.Umaralieva “ O‘zbekistonda ayollar ijtimoiy muammolarini hal etishda xotin-qizlar faolligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosat” “Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali №1.T.,2023. 6-10b. 4 bet.

4. M.Umaralieva “ Social policy for increasing women’s activity in solving women’s social problems in Uzbekistan”, Fars international jurnal of education, social science humanities\\ Journal ISSN: 2945-4492 SJIF 2022 = 6.786 peer reviewed journal.(Finlyandiya) , 6 bet.

5. O.Musurmonova, M.Umaralieva “ Oila va mahallada nogiron bolalarni to‘laqonli ijtimoiy hayotga moslashtirishning mobil yechimlari” , Uslubiy qo‘llanma //“Mahalla va oila” nashriyoti, 2023. – 68 b. 70 bet.

6. M.Umaralieva “Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisining dars jarayonida qo‘llaydigan metodi–ta’lim sifatini asosiy omilidir” , Boshlang‘ich ta’limning zamonaviy tendensiyalari: ta’lim va tarbiya integratsiyasi” mavzuidagi III Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, Jizzax shahri, 2023 yil 4 may.– 253 bet. 3 bet.

7. M.Umaralieva “ Analysis of inclusive education policy and new pedagogical approaches” , Science and innovation 1 scientific journal volume 2 ISSUE 5. 2023: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | SCIENTISTS.UZ.R. 25-27. 3 bet.

8. M.Umaralieva “ Development of pedagogical competences of teachers in inclusive educational environment and mechanisms of using effective methods” , European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625.